O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 5 - sentabr 218-10-212-Q/23 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 18-avgustdagi 397-10-0-Q/23 qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-iyundagi “Ma’muriy islohotlar doirasida transport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 94-sonli Farmoni hamda shu asosda qabul qilingan **Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 18 avgustdagi 397-10-0-Q/23 qarori** ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6;25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-iyunda “Ma’muriy islohotlar doirasida transport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 94-sonli Farmoni hamda shu asosda qabul qilingan **Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 18 avgustdagi 397-10-0-Q/23 qarori** ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu Farmon bilan:

Transport vazirligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari, Transport vazirligi tizimidagi muassasalarni qayta tashkil qilish dasturi, Transport vazirligining tashkiliy tuzilmasi, Transport sohasini raqamlashtirishning ustuvor yo‘nalishlari, Transport sohasini tubdan isloh qilish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” hamda Transport vazirligining xususiy sektorga o‘tkaziladigan funksiyalari ro‘yxati tasdiqlanganligi;

Transport vazirligi tuzilmasiga o‘zgantirishlar kiritilganligi;

Transport vazirligi amaldagi vazifalari va funksiyalari belgilanganligi; Milliy transport kommunikatsiyalari orqali xalqaro va mintaqaviy

tranzitni rivojlantirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish hamda mamlakatning tranzit salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi tranzit salohiyatini rivojlantirish idoralararo kengashi tashkil etilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining markaziy apparati tuzilmasiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi 4705-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur Farmonga muvofiq ayrim hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritilganligi inobatga olinsin va ushbu qaror ijrosi yuzasidan qabul qilingan hujjatlar o‘zgartirish bo‘yicha o‘qilsin.

4. Qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**